



NAVOIYURAN

State-owned Enterprise

Jahon uran bozori tendensiyalari — 2026-yil iyul oyi yangiliklari



O'SIB BORAYOTGAN
TALAB



TOZA ENERGIYAGA
O'TISH



TA'MINOT
XAVFSIZLIGI



UZOQ MUDDATLI
O'SISH



GLOBAL
TAHLIL



MA'LUMOTLARGA
ASOSLANGAN TAHLIL



ISTIQBOLGA
YO'NALTIRILGAN
YONDASHUV



BARQAROR KELAJAK
UCHUN ENERGIYA



Jahon uran bozori tendensiyalari — 2026-yil iyul oyi sharhi



NAVOIYURAN
State-owned Enterprise

MUNDARIJA



01

Dunyo uran bozorida
narxlar dinamikasi



02

Talabni shakllantiruvchi omillar



03

Davlat siyosati va
xalqaro bitimlar



04

Ishlab chiqarish va taklif



05

Korporativ va investitsiya
yangiliklari



06

Texnologiyalar va innovatsiyalar



07

Sanoatdagi ekologik va
ijtimoiy islohotlar



TAHLIL. MA'LUMOT. ISTIQBOL. GLOBAL TA'SIR.

DUNYO URAN BOZORIDA NARXLAR DINAMIKASI



Iyul oyida uranning spot bozordagi narxi mo'tadil o'sishni davom ettirib, bir funt uran oksidi konsentratini — U_3O_8 uchun 80 dollarlik diapazonning o'rta qismida shakllandi. 29-iyul holatiga ko'ra, UxC agentligining spot narx indikatorini bir funt uchun qariyb 86,60 dollarni tashkil etib, oy davomida taxminan 1,3 foizga oshdi.

Uzoq muddatli shartnomalar bo'yicha narxlar ham yuqori darajada saqlanib qolmoqda. TradeTech tahliliy agentligi ma'lumotlariga ko'ra, iyun oyi yakunida uzoq muddatli narx bir funt uchun qariyb 97 dollarga yetgan. Bu so'nggi 18 yil ichidagi eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi.

Narxlarning oshishiga energetika kompaniyalari tomonidan, jumladan, yangi qurilayotgan atom elektr stansiyalarini yoqilg'i bilan ta'minlash maqsadida uran xaridlarining faollashgani hamda jahon bozorida taklifning qisqarishi bilan bog'liq omillar sabab bo'lmoqda.



TALABNI

SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR



NAVOIYURAN
State-owned Enterprise

Uran narxlarining oshishiga turtki bo'layotgan asosiy omillardan biri - jahon miqyosida atom energetikasini rivojlantirish bo'yicha yangi loyihalarning jadallashayotganidir. Shimoliy Amerika, Yevropa va Osiyodagi energetika kompaniyalari iqlim maqsadlariga erishish hamda energiya xavfsizligini mustahkamlash uchun yirik atom reaktorlari va kichik modulli reaktorlar (KMR) loyihalarini ilgari surmoqda.

Xalqaro energetika agentligi prognoziga ko'ra, "yashil" energetikaga o'tish siyosati faol amalga oshirilgan taqdirda, 2050-yilga borib jahonda atom elektr stansiyalarida ishlab chiqariladigan elektr energiyasi hajmi qariyb ikki baravar oshishi mumkin. Bu esa tabiiy uran va yadro yoqilg'i sikli xizmatlariga bo'lgan uzoq muddatli talabning sezilarli ko'payishini anglatadi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari, sun'iy intellekt infratuzilmasi va uzluksiz elektr ta'minotini talab qiladigan boshqa energiya sig'imi yuqori tarmoqlarning kengayishi ham talabni kuchaytirmoqda. "Goldman Sachs" tahlilchilarining qayd etishicha, bazaviy elektr yuklamasining o'sishi barqaror atom energetikasi va ishonchli yadro yoqilg'i manbalariga qiziqishni oshirmoqda.



NAVOIYURAN

State-owned Enterprise

DAVLAT SIYOSATI VA XALQARO BITIMLAR

Iyul oyida atom energetikasi sohasida jahon uran bozorining uzoq muddatli rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan bir qator muhim xalqaro kelishuvlarga erishildi.

9-iyul kuni Avstraliya va Hindiston Avstraliyada ishlab chiqarilgan tabiiy uranni Hindistonga eksport qilish uchun zarur ma'muriy tartib-taomillarni yakunladi. Mazkur kelishuv Hindistonning yadro yoqilg'isi ta'minoti xavfsizligini mustahkamlashi kutilmoqda. Mamlakat 2047-yilga qadar atom energetikasi quvvatini 100 GVtga yetkazishni maqsad qilgan.

22-iyul kuni AQSh va Saudiya Arabistoni atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish bo'yicha uzoq muddatli hamkorlik kelishuviga erishdi. Taxminan 30 yilga mo'ljallangan bitim Saudiya Arabistonida Amerika texnologiyalari asosida atom elektr stansiyalarini qurish hamda mahalliy yadro yoqilg'isi siklini, jumladan, uranni boyitish imkoniyatlarini rivojlantirishga yo'l ochadi. AQShda atom energetikasini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash ham davom etmoqda. Iyun oyi oxirida AQSh Energetika vazirligi atom sanoati ta'minot zanjirini tiklashga qaratilgan beshta loyiha uchun jami 17,5 mlrd dollarlik shartli kredit majburiyatlarini e'lon qildi. Ushbu mablag'lar uzoq muddatda ishlab chiqariladigan uskunalarni xarid qilish va mamlakat bo'ylab o'nta yirik tijorat reaktorini ishga tushirish muddatlarini jadallashtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, yangi avlod reaktorlari uchun zarur bo'lgan yuqori darajali past boyitilgan uran - "HALEU"ni mahalliy ishlab chiqarish loyihalari ham davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

QAZIB OLISH VA TAKLIF

Jahon uran bozorida taklif bilan bog'liq vaziyat hamon keskinligicha qolmoqda. 1-iyul kuni Kanadaning Cameco kompaniyasi Saskachevan provinsiyasidagi Cigar Lake konida qazib olish ishlarini vaqtincha to'xtatdi. Bunga kon rudasi qayta ishlanadigan Orano kompaniyasining McClean Lake zavodidagi texnik nosozlik sabab bo'ldi. Sulfat kislota ishlab chiqarish qurilmasidagi muammo zavod faoliyatining to'xtashiga olib kelgan. Cigar Lake konidagi ruda saqlash quvvatlari cheklangani sababli qazib olish ham vaqtincha to'xtatildi. Ushbu holat qayta ishlash bosqichidagi uzilishlar butun uran ta'minot zanjiriga tezda ta'sir ko'rsatishi mumkinligini yana bir bor namoyon etdi. McClean Lake zavodi faoliyati tiklangach, Cigar Lake konida ishlab chiqarish 14-iyul kuni qayta yo'lga qo'yildi. Cameco ma'lumotiga ko'ra, qisqa muddatli to'xtash 2026-yil uchun ishlab chiqarish prognoziga ta'sir ko'rsatmagan. Konning yillik ishlab chiqarish hajmi 17,5-18 mln funt U_3O_8 darajasida saqlanishi kutilmoqda. Investitsiya kompaniyalari tomonidan uran zaxiralarining faol jamg'arilishi bozordagi erkin taklifni yanada cheklamoqda. Xususan, "Yellow Cake plc"ning "Kazatomprom" bilan tuzgan kelishuvi doirasidagi 2026-yilgi opsiondan foydalanib, qariyb 1,16 mln funt U_3O_8 ni bir funt uchun 86,15 dollardan xarid qildi. Bitimning umumiy qiymati 100 mln dollarni tashkil etadi, yetkazib berish esa 2026-yilning ikkinchi yarmida amalga oshirilishi kutilmoqda. Shundan so'ng kompaniyaning uran zaxiralari qariyb 24,4 mln funtga yetadi.

Shu bilan birga, kelgusida taklifni oshirishi mumkin bo'lgan yangi loyihalar ham rivojlantirilmoqda. Fevral oyida Denison Mines kompaniyasining Phoenix loyihasi qurilishni boshlash uchun yakuniy federal ruxsatnomalarni oldi. Phoenix Kanadada yer ostida quduqli tanlab eritmaga o'tkazish - ISR usulida ishlaydigan birinchi uran koni hamda mamlakatda so'nggi 20 yildan ortiq davr ichida qurilishi ma'qullangan ilk yirik uran loyihasi bo'ladi. Dastlabki mahsulot ishlab chiqarish 2028-yilda boshlanishi rejalashtirilgan.



FEDERAL
APPROVALS
SECURE



ADVANCING
DEVELOPMENT



FUTURE
PRODUCTION
POTENTIAL

Uranium
238.03



YELLOW CAKE PLC

2026 OPTION EXERCISED



NAVOIYURAN
State-owned Enterprise



NAVOIYURAN

State-owned Enterprise

KORPORATIV VA INVESTITSIYA YANGILIKLARI

Investorlar va qazib oluvchi kompaniyalar uran bozorida talab va taklif muvozanatining yanada keskinlashishiga tayyorgarlik ko'rmqda. Ixtisoslashgan investitsiya tuzilmalari jismoniy U_3O_8 zaxiralarini ko'paytirish bilan birga, aksiyalari sof aktivlar qiymatiga nisbatan chegirma bilan sotilayotgan davrda ularni qayta sotib olish dasturlarini ham amalga oshirmoqda. Jumladan, "Yellow Cake plc" kompaniyasi iyul oyida aksiyalarni qayta sotib olish dasturini yakunladi. "Kazatomprom" dan avval e'lon qilingan xarid ham hisobga olinsa, kompaniyaning uran zaxiralari qariyb 24,4 mln funt U_3O_8 ga yetishi kutilmoqda. Uran ishlab chiqaruvchilar esa amaldagi konlarni loyiha quvvatiga olib chiqishga intilmoqda. Paladin Energy Namibiyadagi Langer Heinrich konida ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich oshirish jarayoni muvaffaqiyatli yakunlanganini ma'lum qildi. 2026-moliya yili yakunlariga ko'ra, korxona ishlab chiqarish hajmi, sotuvlar va tannarx bo'yicha belgilangan ko'rsatkichlarga erishgan yoki ularni ortig'i bilan bajargan. Bu kompaniyaning konni 2026-yil iyul oyida to'liq ishlab chiqarish quvvatiga chiqarish bo'yicha avvalgi rejasining amalga oshirilganini anglatadi. Jismoniy uran zaxiralarining ko'payishi va ishlab chiqarish quvvatlarining kengaytirilishi bozor ishtirokchilari yuqori talab hamda qulay narxlar uzoqroq davom etishini kutayotganini ko'rsatadi. Biroq yangi quvvatlarni ishga tushirish katta kapital va uzoq muddat talab qilgani sababli, qisqa istiqbolda taklif taqchilligining sezilarli kamayishi kutilmayapti.

TEKNOLOGIYALAR VA INNOVATSIYALAR



NAVOIYURAN
State-owned Enterprise

Yangi texnologiyalar yadro yoqilg'isi siklining boshlang'ich bosqichlaridan tortib, yangi avlod reaktorlarini yaratishgacha bo'lgan yo'nalishlarda izchil rivojlanmoqda.

Iyul oyida AQShning "SuperCritical Materials" kompaniyasi dengiz suvidan uran va boshqa strategik ahamiyatga ega materiallarni ajratib olish bo'yicha AQSh Energetika vazirligiga tegishli patentlangan texnologiyani tijoratlashtirish uchun eksklyuziv litsenziya oldi. Bu sanoat miqyosida emas, balki milliy laboratoriyalar ishtirokida ishlab chiqilgan texnologiyadan foydalanish huquqidir. Hisob-kitoblarga ko'ra, dunyo okeanlarida qariyb 4,5 mlrd tonna eritilgan uran mavjud. Biroq uning suvdagi konsentratsiyasi nihoyatda past bo'lgani sababli, uranni sanoat usulida ajratib olish hozircha texnik jihatdan murakkab va qimmat hisoblanadi. Shu bois mazkur tashabbus yaqin muddatli ishlab chiqarish manbai emas, balki kelajakda atom energetikasining xomashyo bazasini diversifikatsiya qilishi mumkin bo'lgan istiqbolli texnologik yo'nalish sifatida baholanmoqda.

Ilg'or reaktorlar yo'nalishida ham muhim natijalarga erishildi. 23-iyul kuni AQSh Energetika vazirligi Oklo kompaniyasining Texas shtatidagi Groves tajriba reaktorini ishga tushirishga ruxsat berdi. Ushbu ruxsatnoma yadro yoqilg'isini yuklash, ishga tushirish sinovlarini o'tkazish va reaktorni ilk kritik holatga olib chiqish imkonini beradi. Oklo kompaniyasining "Atomic Alchemy" sho'ba korxonasi tomonidan amalga oshirilayotgan loyiha ilg'or reaktor texnologiyalarini sinovdan o'tkazish hamda tibbiyot va sanoat uchun radioizotoplar ishlab chiqarishga mo'ljallangan. Qurilish boshlanganidan so'ng bir yildan qisqa muddatda ishga tushirish ruxsatining olinishi AQShning Reactor Pilot Program dasturi doirasida loyihaning jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Yevropada kichik modulli reaktorlar loyihalarini rivojlantirish davom etmoqda, biroq ularning texnologik va investitsiyaviy modeli hali ham takomillashtirilmoqda. Fevral oyida Ruminiyaning "Nuclearelectrica" kompaniyasi aksiyadorlari "Doycheshti" hududida "NuScale" texnologiyasi asosida KMR stansiyasini qurish bo'yicha yakuniy investitsiya qarorini ma'qullagan edi. Iyul oyida esa kompaniya dastlabki rivojlantirish strategiyasini qayta ko'rib chiqish, boshqa KMR texnologiyalari va muqobil maydonlarni ham baholash jarayonini boshladi. Bu loyihadan voz kechilayotganini emas, balki keyingi bosqichga o'tishdan oldin texnologik va moliyaviy xatarlarni kamaytirishga qaratilgan yondashuvni anglatadi.

SANOATNING EKOLOGIK VA IJTIMOIIY YANGILIKLARI

Barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik hamda mahalliy hamjamiyatlar bilan samarali hamkorlik uran sanoatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri boʻlib qolmoqda. 2026-yilda Atom energiyasi boʻyicha xalqaro agentlik — MAGATE “Uranium Mine Challenge” xalqaro tanlovini tashkil etdi. Unda talabalar zamonaviy uran qazib olish korxonasi konsepsiyasini ishlab chiqishga taklif etildi. Loyihalarda robototexnika, sensorlar va raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanish, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda sanoat xavfsizligining yuqori standartlariga rioya etish koʻzda tutilishi lozim edi. Arizalarni qabul qilish 1-iyul kuni yakunlandi. Gʻolib jamoa oʻz loyihasini 2026-yil oktabr oyida Vena shahrida oʻtkaziladigan MAGATE konferensiyasida taqdim etadi. Mazkur tashabbus uran sanoatida ekologik jihatdan masʼuliyatli va yuqori texnologiyali qazib olish usullariga eʼtibor kuchayayotganini koʻrsatadi. Shu bilan birga, kompaniyalar yangi loyihalarni amalga oshirishda mahalliy aholi va tubjoy xalqlarning qoʻllab-quvvatlashiga alohida ahamiyat bermoqda. Denison Mines kompaniyasi Saskachevan provinsiyasidagi “Phoenix” konini ham qamrab oluvchi “Wheeler River” loyihasi doirasida tubjoy xalqlar va shimoliy hududlardagi mahalliy boshqaruv organlari bilan bir qator manfaatlar toʻgʻrisidagi kelishuvlarni imzolagan. Ushbu hujjatlarda mahalliy hamjamiyatlar ishtirokidagi ekologik monitoring, bandlik va kasbiy tayyorgarlik imkoniyatlarini kengaytirish, mahalliy biznesni qoʻllab-quvvatlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarni taʼminlash nazarda tutilgan. Bunday kelishuvlar yirik konchilik loyihalarini amalga oshirish uchun faqat texnik va davlat ruxsatnomalarining oʻzi yetarli emasligini koʻrsatmoqda. Mahalliy aholining uzoq muddatli ishonchi va roziligini anglatuvchi ijtimoiy litsenziya ham tobora muhim omilga aylanmoqda. Shu bilan birga, avvalgi davrlarda faoliyat yuritgan uran obyektlari bilan bogʻliq ekologik va huquqiy masalalar kuzatuvda qolmoqda, biroq iyul oyida yirik yangi hodisalar qayd etilmadi.

Mazkur dayjest asosan kompaniyalar va davlat organlarining rasmiy xabarlari, Reuters hamda World Nuclear News materiallari, shuningdek, Cameco, Numerco, Trading Economics, Sprott va boshqa ochiq tarmoq manbalaridagi bozor maʼlumotlari asosida tayyorlangan. Undagi maʼlumotlar faqat axborot-tahliliy maqsadlarda taqdim etilgan boʻlib, investitsiyaviy tavsiya hisoblanmaydi.